

**XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.02/30.07.2022.B.149.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

RABBIMOV SUXROB SHODMONOVICH

**SHIMOLI-SHARQIY O'ZBEKISTON UY VA YOVVOYI
TOVUQSIMONLARINING (*GALLIFORMES*) PARAZITOFANASI**

03.00.06 – Zoologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA FANLARI DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Xiva – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Rabbimov Suxrob Shodmonovich

Shimoliy-sharqiy O'zbekiston uy va yovvoyi tovuqsimonlarining
(*Galliformes*) parazitofaunasi..... 3

Раббимов Сухроб Шодмонович

Паразитофауна домашних и диких курообразных (*Galliformes*) Северо-
восточного Узбекистана 21

Rabbimov Sukhrob Shodmonovich

Parasite fauna of domestic and wild Galliforms (*Galliformes*) of North-
Eastern Uzbekistan..... 39

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 43

**XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.02/30.07.2022.B.149.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

RABBIMOV SUXROB SHODMONOVICH

**SHIMOLI-SHARQIY O'ZBEKISTON UY VA YOVVOYI
TOVUQSIMONLARINING (*GALLIFORMES*) PARAZITOFANASI**

03.00.06 – Zoologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA FANLARI DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Xiva – 2025

Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3.PhD/B639 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi hamda «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Akramova Firuza Djalaliddinovna
Biologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Bekchanov Xudaybergan O'rinovich
Biologiya fanlari doktori, professor

Safarova Feruza Ergashevna,
Biologiya fanlari falsafa doktori, dotsent.

Yetakchi tashkilot:

Qoraqalpoq davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Xorazm Ma'mun akademiyasi huzuridagi PhD.02/30.07.2022.B.149.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil "02" "iyul" soat 15⁰⁰ daqiqa majlisida bo'lib o'tadi Manzil: 220900, Xiva shaxri. Markaz 1 uy. Ma'mun akademiyasi majlislar zali Tel.: (+998 62) 226-20-27, faks (+99862) 226-20-27, E-mail: mumun@academy.uz.

Dissertatsiya bilan Xorazm Ma'mun akademiyasi Axborot-resurs markazida (№10 raqami bilan ro'yxatga olingan) tanishish mumkin. (220900, Xiva shaxri. Markaz 1 uy. Ma'mun akademiyasi majlislar zali Tel.: (+998 62) 226-20-27, faks (+99862) 226-20-27

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "18" iyunda tarqatilgan.
(2025 yil "18" iyundagi №10 bayonnomasi)



I.L.Abdullayev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy Kengashi raisi, b.f.d., professor

Z.Sh.Matyakubov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy Kengash kotibi, b.f.f.d.,
katta ilmiy xodim

L.A.Ganjayeva
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy Kengash qoshidagi ilmiy
seminar rui, b.f.d., professor

KIRISH (PhD dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi. Bugungi kunda dunyo miqyosida global iqlim o'zgarishi, tabiiy ekotizimlarning keskin o'zlashtirilishi biogeotsenozning asosiy komponentlaridan biri – hayvonot olami holatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu holat, ayniqsa, antropogen transformatsiyalangan hududlarda qishloq xo'jaligini rivojlantirish bilan bog'liq holda suv resurslarining jiddiy qayta taqsimlanishi, degradatsiyaga uchrash natijasida qushlar vakillarining parazitlari, jumladan, gelmintlar xilma-xilligining keng tarqalishiga sabab bo'lmoqda. Shu sababli, parazitofaunaning hozirgi holatini hamda dominant turlari va tovuqsimonlar ekto va endoparazitlari guruhlari ekologiyasining o'ziga xos xususiyatlarini baholash, parazitlar kasalliklari majmuasini oldini olish usullarini takomillashtirish katta ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Jahonda tabiiy suv ekotizimlarida yashaydigan qushlar, jumladan, ularning ov ahamiyatiga ega turlari hamda xonaki qushlarga zarar keltiradigan gelmintlar faunasini baholash, ularning moslashish strategiyasi va tarqalish xususiyatlarini aniqlash bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada parazitlarning zamonaviy faunasini aniqlash, xonaki va yovvoyi tovuqsimonlarda dominant bo'lgan parazit turlarining tarqalish xususiyatlarini, asosiy gelmintozlar populyatsiyalarining kengayotgani, ekologiyasini yoritish, ular yetkazayotgan iqtisodiy zarar ko'lamining oshib borayotgani aniqlanib, parazitlar kasalliklar majmuasini oldini olishning samarali usullari va vositalarini ishlab chiqishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda biologik xilma-xillikni saqlash, parrandachilik tarmoqlari mahsuldorligini oshirish va parrandachilik mahsulotlarining ekologik xavfsizligini ta'minlash bo'yicha muayyan ilmiy natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar strategiyasida" mahsuldorligi yuqori chorva zotlarini yaratish va ishlab chiqarishga joriy etish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish, hayvonot dunyosi yashash muhiti holatiga, odam va hayvonlarning salomatligi va genofondiga putur yetkazuvchi ekologik muammolarning oldini olish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berilgan.¹ Ushbu muammolarni hal qilish uchun, xususan, ekto va endoparazitlarning tur tarkibini inventarizatsiya qilish, tovuqsimonlar parazitlarining dominant turlari va guruhlari muayyan hududlarda tarqalishi va ekologiyasi, mahsuldorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillarni aniqlash va tovuqsimonlarning parazitlar kasalliklariga qarshi kurashning samarali usullarini takomillashtirish katta ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-noyabrdagi 914-son "Hayvonot va o'simlik dunyosi obyektlarining davlat hisobini, ulardan foydalanish hajmlari hisobini va davlat kadastrini yuritish

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

to'g'risida" Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiya rivojlanishining V.«Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishiga mos ravishda bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tovuqsimonlar parazitofaunasi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar dunyoning ilmiy markazlari va universitetlarida olib borilgan, ularda ektoparazitlar va gelmintlarning turlarga oid va taksonomik xilma-xilligi, ularning hayotiy sikllari va ekologiyasi o'rganilgan, parazitlar kasalliklarga qarshi kurashish usullari ishlab chiqilgan bo'lib, ular ko'p jildli monografiya va aniqlagichlarga jamlangan (М.Д. Сонин, В. Баруш, 1996; А.К. Anderson, 2000; С.О. Мовсесян, 2003; I. Dinev, 2010).

MDH mamlakatlarida ham shunga o'xshash tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, natijalari ko'pgina ilmiy ishlarda nashr etilgan. Yovvoyi va uy tovuqsimonlari gelmintlar faunasi va gelmintozlari bo'yicha А.Н. Черткова, А.М. Петров (1959, 1961); И.Е. Быховская – Павловская (1961), К.М. Рыжиков (1973, 1974) va boshqalarning monografiyalarida umumlashtirilgan.

Markaziy Osiyo respublikalarida qushlar gelmintlari faunasini o'rganishda, jumladan, tovuqsimonlarda sestodalar, trematodalar, akantotsefallar va nematodalarga mansub bir qancha parazit turlari qayd etilgan (Боргаренко Л.Ф., 1981, 1984, 1990; Гвоздев Е.В., Боргаренко Л.Ф., 1990).

O'zbekistonda xonaki va yovvoyi ovlanadigan qushlarining gelmintofaunasi o'tgan asrning 60-yillarida o'rganilgan. Amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalari М.А. Sultonov (1963) monografiyasida jamlangan. Muallif tovuqsimonlarning ayrim vakillari gelmintlarining tur tarkibini qisman tadqiq qildi. So'nggi yillarda O'zbekiston Janubida qushlarning gelmintofaunasi (Tangirova, 2021) va Qoraqalpog'istonda (Jangabayev, 2021) o'rganildi. Biroq O'zbekistonning Shimoliy-sharqiy qismida tovuqsimonlar ekto va endoparazitlari faunasini maqsadli o'rganish ishlari olib borilmagan. Parazitlar kasalliklar qo'zg'atuvchilar sonini boshqarish usullarini ishlab chiqish maqsadida uy va yovvoyi tovuqsimonlar gelmintlari va ektoparazitlar guruhlari dominant turlarining ekologik xususiyatlari va parazitofaunasini o'rganish parazitologiya fani va amaliyotining asosiy vazifasi hisoblanadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zR FA Zoologiya institutining fundamental va amaliy loyihalari asosida "Umurtqali hayvonlar gelmintlar faunasining shakllanish yo'llari, taksonomiyasi va kurash choralarini takomillashtirish" (2021-2024 yillar); Uzb – Ind – 2021 – 86 raqamli "The bioactive composition of tick saliva, their prevalence of infestation and olfactometric response to electroantennogram" (2021-2024 yillar) mavzusidagi qo'shma xalqaro amaliy loyihalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Shimoli-sharqiy O'zbekistonda tovuqsimonlar turkumiga kiruvchi qushlar ekto- va endoparazitlarining hozirgi tur tarkibini aniqlash, parazit faunasining shakllanish yo'llarini va xonaki tovuqsimonlarning asosiy parazitlar kasalliklarining oldini olish usullarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Shimoli-sharqiy O'zbekistonning xonaki va yovvoyi tovuqsimon qushlarining ektoparazitlari va gelmintlari faunasining zamonaviy tarkibini aniqlash;

o'rganilayotgan hududning vertikal kengliklaridagi tovuqsimonlarning xonaki va ovlanadigan turlari parazitlari jamoasining xususiyatlarini yoritish;

parazitlar va ularning xo'jayini - tovuqsimonlarning biotsenotik munosabatlarini aniqlash;

qushlarning dominant gelmintlari va ektoparazitlari biologiyasini o'rganish;

xonaki tovuqsimonlar ekto va endoparazitlarining epizootologik ahamiyatga ega turlari va guruhlarini aniqlash;

Shimoli-sharqiy O'zbekistonning turli tipdagi xo'jaliklarida parranda parazitlari populyatsiyasi sonini nazorat qilish usullarini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida xonaki va yovvoyi tovuqsimonlar hamda ularning ekto va endoparazitlari olingan.

Tadqiqotning predmetini Shimoliy-sharqiy O'zbekiston biogeotsenozlarida tovuqsimonlar ekto va endoparazitlari ekologiyasining xususiyatlari, faunasi va ularning biotsenotik munosabatlari, o'rganilayotgan hudud sharoitida xonaki tovuqsimonlarining asosiy parazitlar kasalliklarini oldini olish va qarshi kurashish hamda muhofaza metodlarini takomillashtirish tashkil etgan.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishini bajarishda zoologik, gelmintologik, parazitologik, biokimyoviy, biometrik, ekologik tadqiqotlarning klassik va zamonaviy usullari hamda qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk marotaba Shimoliy-sharqiy O'zbekistonning uy va yovvoyi tovuqsimonlarining ektoparazitlari va gelmintlari faunasi hamda tovuqsimonlar gelmintofaunasi 37 tur, 3 sinf - Cestoda, Trematoda va Nematodalarga mansubligi aniqlangan;

tovuqsimonlarda ektoparazitlari 3 tur kanalar va 15 turdagi parxo'rlar uchrashi bo'yicha aniq ma'lumotlar keltirilgan hamda hayvonlar ektoparazitlariga qarshi birinchi marta yangi "Superamig" preparatini sinovdan o'tkazildi va 83-91,6% gacha nobud qilish samaradorligi isbotlangan;

parrandalarda parazitlik qiluvchi *Argas persicus* 1 tur kana namunasi mDNK sining 16S rRNK sohasi nukleotidlar ketma-ketligi bo'yicha ma'lumotlar Biotexnologik axborotlar milliy markazi (NCBI) bazasiga joylashtirilgan;

ilk bor Shimoliy-sharqiy O'zbekistonda qayd etilgan ektoparazitlarining tur tarkibi xilma - xil bo'lib, xonaki tovuqsimonlarda 17 tur va yovvoyi tovuqsimonlarda 9 turga mansubligi aniqlangan;

uy va yovvoyi tovuqsimonlarining gelmintlar faunasi shakllanishida alohida ahamiyatga ega gelmintlar va ularning xo'jayinlari bilan biotsenotik aloqalari ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Shimoliy-sharqiy O'zbekiston tovuqsimonlar qushlarining ektoparazitlari va gelmintlarining tur tarkibi va xonaki tovuqlar hamda kurkalarda ular keltirib chiqaradigan kasalliklar bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

tovuqsimonlar ekto va endoparazitlarining faunasi o'zining xilma-xilligi va shakllanishida ularning quruqlikdagi hayot tarzi va oziqlanish xususiyatlari ochib berilgan;

Toshkent, Sirdaryo va Jizzax viloyatlarining turli tipdagi parrandachilik xo'jaliklarida tovuqlar va kurkalarning rayetinoz, skriabinioz, xooanotenioz, exinostomidoz, kapilliyarioz, askaridioz, geterakidoz kabi potensial havfli gelmintozlari keng tarqalishi aniqlandi va shu bilan birgalikda kasalliklar tarqalishini oldini olish usullari ishlab chiqilgan;

gelmintozlar bilan qushlarning zararlanishi yilning barcha fasllarida kuzatilib, tovuq va kurkalar turlaridagi parazitlarining invaziya ekstensivligi 10,5 dan 85,5% gacha o'zgarib turishi aniqlangan;

tovuq va kurkalarning epizootologik ahamiyatga ega parazitlar kasalliklariga qarshi kurashish va oldini olishning takomillashtirilgan usullari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi: Ishda zamonaviy parazitologik, gelmintologik, ekologik usullardan foydalanish va ilmiy yondashuvlar asosida olingan eksperimental natijalarning nazariy ma'lumotlarga muvofiqligi, natijalarning yetakchi ilmiy nashrlarda e'lon qilinishi, natijalarni amaliyotga tatbiq etish va olingan natijalarning ishonchliligi mutaxassislar tomonidan baholanganligi hamda olingan amaliy natijalar vakolatli davlat organlari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati: tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O'zbekiston Shimoli-sharqidagi xonaki va yovvoyi tovuqsimonlarning ektoparazitlari va gelmintlarining zamonaviy faunasini shakllanish xususiyatlari hamda tarqalishi talqin qilingani, gelmintlar va ularning xo'jayinlari bilan biotsenotik aloqalarining ochib berilgani hamda ekologik xususiyatlarining asoslangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Toshkent, Sirdaryo va Jizzax viloyatlari parrandachilik xo'jaliklarida xonaki tovuqsimonlarining asosiy parazit kasalliklarining oldini olish va parrandachilik xo'jaligida epizootik osoyishtalikni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishda ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi: Shimoli-sharqiy O'zbekiston uy va yovvoyi tovuqsimonlarining (Galliformes) parazitofaunasi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Toshkent viloyati Parkent tumanidagi shaxsiy xo'jaliklarida gelmintlar bilan zararlangan 57 bosh parrandalar (tovuq, kurka, sesarka) dagi sestodoz va trematodozlarga qarshi Prazikvantel antigelmint preparati qo'llanilgan va ijobiy biologik samaradorligi aniqlanib, Toshkent viloyati veterinariya amaliyotiga joriy qilingan (O'zbekiston respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2023 yil 13 oktabrdagi

02/23-1904 son ma'lumotnomasi). Natijada, tovuq va kurka, parrandachilik xo'jaliklarida gelmintozlar tufayli iqtisodiy zararlar kamayishi, qushlar sonini oshishi va epizootik jarayonning barqororligini ta'minlash imkonini bergan;

parrandalar (tovuq, kurka, sesarka) xilma-xilligini saqlab qolish, ulardan oqilona foydalanish va gelmintoz kasalliklariga qarshi kurashda Levamizol antigelmint va Superamig preparatlarining biologik samaradorligi aniqlanib, Sirdaryo va Jizzax viloyati veterinariya amaliyotiga joriy qilingan (O'zbekiston respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi veterenariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2023 yil 13 oktabrdagi 02/23-1904 son ma'lumotnomasi). Natijada, tovuq, kurka va sesarkalarda akuarioz, disfarinkoz va ektoparazitlar tufayli iqtisodiy zararlar kamayishi va epizootik jarayonning barqororligini ta'minlash imkonini bergan;

O'zbekistonning Shimoli-sharqiy hududidagi qishloq xo'jaligi parrandalariga parazitlik qiluvchi 1 tur kanani mDNK sining 16S rRNK sohasi nukleotidlar ketma-ketligi bo'yicha ma'lumotlar Biotexnologik axborotlar milliy markazi (NCBI) bazasiga (<https://www.ncbi.nlm.nih.gov>) joylashtirilgan (Biotexnologik axborotlar milliy markazining 2024 yil 27 dekabrda ma'lumotnomasi). Natijada, *Argas persicus* - (PQ810635.1) turining identifikasiya raqami olingan hamda u orqali xalqaro miqyosda turlarni aniqlash va filogeniyasini o'rganish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 20 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan nashrlarda 9 ta maqola, jumladan 6 ta respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 115 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurligi asoslangan. Maqsad va vazifalar, tadqiqot ob'ekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, ilmiy yangilik va amaliy natijalar taqdim etilgan, tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati ko'rsatilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“O'zbekistonda qushlarning ekto- va endoparazitlari faunasining o'rganilganlik holati”** birinchi bobida O'zbekiston va unga tutash hududlardagi xonaki va yovvoyi qushlarning gelmintlari va ektoparazitlarining ekologik va faunistik tadqiqotlariga oid adabiyot ma'lumotlari keltirilgan. Shimoli-sharqiy O'zbekistondagi tovuqsimonlar parazitlari majmuasining tur xilma-xilligi to'g'risida ma'lumotlar mavjud emas. Shuning uchun o'rganilayotgan hududda

tovuqsimonlar parazitlarining ekologik va faunistik xususiyatlarini o'rganish dolzarb va zarur.

Dissertatsiyaning **“Shimoliy-sharqiy O‘zbekistonning landshafti, ekologik xususiyatlari, materiallar va tadqiqot usullari”** ikkinchi bobida o‘rganilayotgan hudud tabiiy-hududiy majmuasining xususiyatlari ko‘rsatilgan. Qayd etilishicha, O‘zbekistonning shimoli-sharqiy qismida turli yo‘nalishdagi murakkab relyef va funksional zonalar mavjud bo‘lib, ularda turli qushlar, jumladan, tovuqsimonlar tarqalgan.

Asosiy material Shimoli-sharqiy O‘zbekiston (Toshkent, Sirdaryo, Jizzax viloyatlari) tovuqsimonlar turkumiga kiruvchi uy va yovvoyi qushlarning gelmintlari va ektoparazitlarining sifat va miqdoriy to‘plamlari bo‘ldi. Ekto- va endoparazitlar 2020 - 2024 yillarda belgilangan 3 ta viloyat tumanlaridan to‘plangan. Yilning barcha fasllarida xonaki tovuqsimonlar (tovuq, kurka, sesarka), ov mavsumida esa yovvoyi tovuqsimonlar (kaklik, kulrang kaklik, bedana, qirg‘ovul) ovlangan. Bunda professional ovchilar xizmatidan foydalanildi.

Gelmintologik material ma‘lum usullar bo‘yicha qushlarni yorish yo‘li bilan to‘plangan (Dubinina, 1971). Tovuqsimon qushlar ektoparazitlari bo‘yicha material to‘plash ham parazitologiyaning ma‘lum usullari bo‘yicha amalga oshirildi (Blagoveshchenskiy, 1959; Agrinskiy, 1962; Dubinina, 1971; Kasiyev, 1971). Jami 927 nusxadagi qushlar Toshkent viloyatining Ohangaron, Bo‘stonliq, Parkent tumanlari; Jizzax viloyatining Baxmal, Zomin, G‘allaorol, Forish, Jizzax tumanlari; Sirdaryo viloyatining Bayaut, Xovost va Sirdaryo tumanlari quruqlik biosenozlaridan o‘rganildi.

Gelmint turlarini aniqlashda biz mahalliy (Sultonov, 1963; Azimov va boshq., 2012) va xorijiy tadqiqotchilar (Chertkova, Petrov, 1959, 1961; Spasskiy, 1963; Rijikov va boshqalar, 1973, 1974); Sonin, Barush, 1996; Anderson, 2000; Movsesyan, 2003) qo‘llanmalaridan foydalandik. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Zoologiya institutining Umumiy parazitologiya laboratoriyasida gelmintlarning turlarini aniqlash zamonaviy asboblardan yordamida amalga oshirildi.

Blagoveshchenskiy (1959) Kasiyev (1971); Shumilo, Lukashu (1972); Fedorenko (1983, 1987) asarlari asosida ektoparazitlarning (kanalar va parxo‘rlar) tur ta‘rifi tuzatildi. Qushlarning taksonomiyasi "Конспекту орнитологической фауны России и сопредельных территорий" adabiyotiga muvofiq berilgan (Stepanyan, 2003).

Dissertatsiyaning **“Shimoli-sharqiy O‘zbekistonda tovuqsimon qushlar gelmintlarining ekologik va faunistik xususiyatlari”** deb nomlangan uchinchi bobi tadqiqot natijalariga, gelmintlar, kana va parxo‘rlar, qushlarning tur xilma-xilligiga bag‘ishlangan bo‘lib, bir necha bo‘limlardan iborat.

3.1–bo‘limda Shimoli-sharqiy O‘zbekiston tovuqsimonlarining gelmintofaunasi o‘rganilgan 927 ta namunadan ko‘rsatilgan tovuqsimon qushlardan 529 tasi gelmintlar bilan kasallanganligi aniqlandi. Umumiy zararlanish 57,2% ni tashkil etdi, Cestoda, Trematoda va Nematoda sinflariga mansub parazit chuvalchaglarning 37 turi aniqlandi. Parazitlarning umumiy sonidan (37) xonaki tovuqsimonlarda 30 turi, yovvoyilarida 27 turi qayd etilgan. Mazkur qushlar guruhi

uchun 21 xil gelmintlar umumiy bo'lgan. Tovuqsimonlarning ba'zi vakillarida parazitlarning xilma-xilligi uy tovuqlarida (30 tur) va kurkalarda (22) eng ko'p ifodalangan. Yovvoyi tovuqsimonlar vakillari orasida gelmintlar faunasi qirg'ovul populyatsiyasida eng xilma-xil bo'lib, ularda 19 tur topilgan.

Tovuqsimonlar gelmintofaunasining xilma-xilligi ularning quruqlikdagi hayot tarzining xususiyatlarini aniq aks ettiradi. Ularda parazitlarning rivojlanishi quruqlik muhiti sharoitlari bilan bog'liq turlari ustunlik qiladi.

Xonaki tovuqlar gelmintofaunasi. Tovuqlarning gelmintofaunasi Cestoda (9 tur), trematoda (8 tur) va nematoda (19 tur) sinflariga kiruvchi gelmintlarning 30 turidan iborat.

Tovuqlarning gelmintofaunasini mintaqalar kesimi bo'yicha ko'rib chiqishda parazitlar faunasining tuzilishi bir xil emasligi aniqlandi. Eng ko'p turi Toshkent viloyatida – 30 tur, Jizzaxda – 23 va eng ozi Sirdaryoda – 14 tur qayd etilgan.

Kurkaning gelmintofaunasi. Umumiy kasallanish 50% ni tashkil etdi. Ulardan 22 tur aniqlangan: sestodalar - 6 tur, trematodalar - 3 tur va nematodalar - 13 tur.

Sesarkalarning gelmintofaunasi. Yig'ilgan gelmintlardan 12 tur aniqlandi. *D. proglottina*, *S. cestitillus*, *Ch. infundibulum*, *E. revolutum*, *P. ovatas*, *A. caudinflata*, *B. absignata*, *Ascaridia compar*, *A. galli*, *H. gallinarum*, *Acuaria hamulosa*, *D. nasuta*). 11 tur xonaki tovuqlar uchun umumiy bo'lib chiqdi.

Kaklikning gelmintofaunasi. Aniqlangan gelmintlar identifikatsiya qilindi, ular 19 turning vakillari bo'lib chiqdi: sestodalar - 6 tur, trematodalar - 3 tur, nematodalar - 10 tur.

Kulrang kakliklarning gelmintofaunasi. Gelmintlarning 11 turi aniqlangan: *R. echinobothrida*, *S. cestitillus*, *Ch. infundibulum*, *B. obsignata*, *A. compar*, *A. galli*, *H. gallinarum*, *S. brumpti*, *Acuaria gruveli*, *D. nasuta*, *O. schulzi*. Biz tomonimizdan kulrang kaklik uchun gelmintlarning 9 turi ilk marotaba belgilab berildi. Bizning to'plagan materiallarimizda Sultonov (1963) tomonidan qayd etilgan – *Subulura brumpti*, *Raillietina uragalli* kabi turlar yo'q edi. Shu yo'l bilan o'rganilayotgan qushning faunasi 9 tur bilan to'ldirildi. Gelmintlarning umumiy ro'yxati 13 turni o'z ichiga oladi (sestodalar - 4 tur, nematodalar - 9 tur).

Bedana gelmintofaunasi gelmintlarning 11 turidan iborat (*R. echinobothrida*, *S. cestitillus*, *Ch. infundibulum*, *B. obsignata*, *A. compar*, *A. galli*, *H. gallinarum*, *S. brumpti*, *Acuaria gruveli*, *D. nasuta*, *O. schulzi*). Bizning tadqiqot ma'lumotlari Sultonov (1963) ma'lumotlarini ma'lum darajada tasdiqlaydi, farqi shundaki, bizning kolleksiyalarimizda - *Raillietina circumivallata*, *Rhabdometra nigropunctata*, *Metroliaesthes lucida*, *Subulura suctoria*, *S. skrjabini*, *Acuaria hamulosa*, *A. coturaicola* turlari yo'q.

Qirg'ovulning gelmintofaunasi. Sestodalar, trematodalar va nematodalarga mansub gelmintlarning 19 turi aniqlangan.

Biologik siklning tabiatiga ko'ra, biz tomonidan qayd etilgan gelmintlarni 2 guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruh rivojlanishi oraliq xo'jayin (geteroksen shakllar) ishtirokida davom etadigan gelmintlarni o'z ichiga oladi. Ikkinchi guruhga hayot sikli oraliq xo'jayinlar ishtirokisiz davom etadigan turlar kiradi. Bizning materialimizda parazitlarning ikkala guruhi vakillari ham mavjud (1-jadval).

1-jadvalda tovuqsimonlar gelmintlarining oraliq, qo'shimcha va rezervuar xo'jayinlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Tovuqsimonlar turlarida parazitlik qiluvchilar hayot sikllari to'g'risida ma'lumotlar yo'qligi sababli, biz ularni biologiyasi haqida ma'lumotga ega bo'lgan bir-biriga yaqin turlarga o'xshatish orqali baholadik. Tovuqsimonlar gelmintlarining invaziv elementlarini tarqatishda hayvonlarning ko'p guruhlari (sinflar, turkumlar) ishtirok etadilar.

1-jadval

Hayvonlar ayrim guruhlarining tovuqsimonlar gelmintlarini invazion bosqichlarni, tarqatishda ishtirok etishi

Xo'jayin	sestodalar	trematodalar	nematodalar
Halqali chuvalchanglar	-	-	+
Quruqik molyuskalari	+	+	+
Suv mollyuskalari	-	+	-
Qisqichbaqasimonlar	+	-	+
Hasharotlar	+	+	+
Amfibiylar	-	+	-

Tovuqsimonlar turkumiga kiruvchi qushlarning obligat va fakultativ parazitlaridan ko'pchilik turlarning zararlanishi trofik bog'lanishlar orqali sodir bo'ladi. Lekin qushlarning *Splendidofilaria urogalli* paraziti lichinkalari bilan zararlanishi ushbu holatga istisno ravishda sodir bo'ladi. Tovuqsimonlarning zararlanishi qon so'ruvchi qo'shqanotlilarning chaqishi orqali, ular xo'jayinining qoni bilan oziqlanishi paytida sodir bo'ladi.

Tovuqsimonlar ma'lum guruhlarining oziqlanish munosabatlari ko'p jihatdan ularda parazit qiluvchi gelmintlarning tarkibini aniqlaydi va shubhasiz, ularning gelmintofaunasining shakllanishida va tabiatda invaziyalari aylanishida asosiy omil hisoblanadi.

Shimoli-sharqiy O'zbekistondagi xonaki tovuqsimonlar gelmintozlarining ekologik va epizootologik xususiyatlari bo'limida xususiy va fermer xo'jaliklarida yetishtiriladigan tovuqlar, kurkalar, sesarkalarning asosiy gelmintozlarini aniqladik. Bularga quyidagi gelmintozlar kiradi: rayetinoz, skriabinioz, xooanotenioz, echinolepoz, exinostomidoz, kapilliyarioz, askarididoz, geterakidoz, akuarioz, disfarinkoz. Ushbu kasalliklar mahsuldorlikni keskin pasaytiradi va invaziyaning yuqori intensivligida qushlarning, ayniqsa yosh hayvonlarning o'limiga olib kelishi mumkin.

Rayetinioz - gelmintoz kasallik bo'lib, tovuqlar, kurkalar va sesarkalarning ichaklarida parazitlik qiluvchi *Raillietina* turkumiga kiruvchi sestodalar bilan kasallanadi. Bizning materialimizda rayetinlar 3 turi topildi: *R.echinobothrida*, *R.tetragona* va *R.penetrans*.

Rivojlanish oraliq xo'jayinlar - chumolilar ishtirokida davom etadi, ularning organizmida sistitserkoidlar 26°C haroratda 43-46 kun ichida rivojlanadi (Romanenko, 1970).

Sistitserkoidli chumolilarni iste'mol qilganda tovuqlar, kurkalar, sesarkalar rayetinlar bilan kasallanadi. Qushlarning zaralanishi yilning issiq fasllarida, yozda

va kuzning boshida sodir bo'ladi. Qushlarning tanasida rayetinlar zararlanishdan keyin 2-3 hafta ichida jinsiy yetuklikka erishadilar (1-rasm).

Kasallik hamma joyda uchraydi. Toshkent, Sirdaryo, Jizzax viloyatlaridagi parrandachilik xo'jaliklari tovuq va kurkalarida rayetinoz kasalligini qayd etdik. Tovuqlarning rayetinozli zararlanishining ekstensivligi 15 dan 45% gacha, zararlanish intensivligi 3 dan 17 donagacha.

Echinolepos - tovuq va kurkalarning ingichka ichaklarida parazitlik qiluvchi *Echinolepis carioca* sestodasidan kelib chiqqan kasallik. Biologik sikl oraliq xo'jayinlar – qo'ng'izlar (*Coleoptera*) ishtirokida davom etadi. Qo'ng'izlar tanasida sistitserkoidlar rivojlanadi (2-rasm).

Yetilgan tana proglotidalarining uzilib chiqishigacha qushning tanasida yetilgan sestodaning rivojlanishi 12 dan 29 kungacha davom etadi.


Tovuqlar va kurkalarning zararlanishi iyundan oktyabrgacha yilning iliq davrida sodir bo'ladi. Zararlanish 10-25% ga etadi. Zararlangan qushlar atrof-muhit uchun gelmint tuxumlarini tarqatuvchi manba hisoblanadi.

Xoanotenioz – bu tovuqlar, kurkalar va sesarka parrandalari, shuningdek, yovvoyi tovuqsimonlar (qirg'ovul, bedana) ingichka ichaklarida parazitlik qiluvchi *Choanotaenia infundibulum* sestodasi qo'zg'atadigan kasallik.


Biologik sikl oraliq xo'jayin- hasharotlar ishtirokida davom etadi. O'simliklarning barglarini yeyayotgan oraliq xo'jayinlar parazit tuxumlarini yutib yuboradi. Sistitserkoidlar chigirtka tanasida 17-20 kun ichida rivojlanadi. Sistitserkoidli qo'ng'izlar, chigirtkalarni iste'mol qilish orqali qushlar xoanoteniylar bilan kasallanadi.

Tovuq ichaklarida parazitlar jinsiy yetuk holatga 14-17 kun ichida o'tadi (Petrochenko, Kotelnikov, 1976).


Echinostomidozlar - O'zbekiston shimoli-sharqidagi tovuqlar, sesarkalarning ichaklarida parazitlik qiluvchi Echinostomatidae oilasiga mansub trematodalar guruhi qo'zg'atuvchi gelmintozlar. Rivojlanish ikki oraliq xo'jayin, suvda yashovchi mollyuskalar (*Lymnaeidae*, *Planorbidae* va boshqalar) ishtirokida boradi. Mollyuskalarda birinchi oraliq xo'jayinlarda lichinkalar avlodi rivojlanib, serkariylar hosil bo'ladi (3-rasm).



1-rasm. Sestoda *Raillietina tetragona* hayot siklining diagrammasi.




2-rasm. Qo'ng'izlardan (*Coleoptera*) ajratilgan Sistitserkoid *Echinolepis carioca*.



viloyatlari parrandachilik ro'yxatga olingan. O'rganilayotgan qushlarning zararlanishi 9 dan 18,8% gacha.

Rivojlanish ikki oraliq ishtirokida sodir bo'ladi. Trematodaning birinchi oraliq xo'jayini chuchuk suv mollyuskasi *Lymnaea ovata*, *L.auricularia*, ikkinchisi lichinkalar va katta yoshli ninachilardir. (4-rasm).



kloakasida parazitlik qiladi.

Kasallik ayrim fermer xo'jaliklarida, asosan, Toshkent, Sirdaryo viloyatlaridagi xususiy tarmoqlarning tomorqalarida qayd

Rivojlanish sikli ikkita oraliq ishtirokida davom etadi. Parazitning birinchi oraliq xo'jayini Planorbidae oilasiga mansub mollyuskalar (*Gyraulus albus*, *G. gredleri*); ikkinchisi – (*Libellula*, *Korduliya*, *Anax* va b.) turkumidagi ninachilar (Panin, 1957).

Tovuqlar va kurkalar metaserkariyalni iste'mol qilish orqali parazitni yuqtiradi. Parazitlar 7-16 kun ichida jinsiy yetuklikka erishadilar.

Kapillyaroz - Capillariidae oilasining *Capillaria*, *Aonchotheca*, *Baruscapillaria* avlodining nematoda turlari qo'zg'atadigan kasallik. Ko'p hollarda bu nematodalar tovuqlar, kurkalar va sesarkalarda aralash invaziya shaklida uchraydi, ular keltirib chiqaradigan kasalliklar kapillyariozlar deb ataladi.

Tovuqsimon qushlarning zararlanishi yilning iliq davrida, kech bahordan kech kuzgacha sodir bo'ladi. Shimoli-Sharqiy O'zbekiston hududlarida tovuqlar, kurkalar va sesarkalarning umumiy zararlanishi 8,5% dan 21,6% gacha.

Plagiorxoz - kasallikning qo'zg'atuvchisi - *Plagiorchis arcuatus* (Plagiorchiidae), tovuq va kurkalarning tuxum yo'li va fabritsiy xaltasida parazitlik qiladi. Toshkent, Jizzax va Sirdaryo xo'jaliklarida

3-rasm. *Echinostoma revolutum*:

A - tuxum, B - bosh uchi,

C - Trematodaning umumiy ko'rinishi.

umumiy

xo'jayin

Tovuqlar va kurkalarning zararlanishi metaserkariyalni yeyish orqali sodir bo'ladi. Qushlar organizmida parazitning rivojlanishi 5-14 kun davom etadi (Krasnolobova, 1987).

Prostogonimoz - tovuq va kurkalarning *Prosthogonimus ovatus* trematodasi qo'zg'atuvchi kasalligi bo'lib, u fabritsial xaltada, tuxum yo'lida, ba'zan qushlarning

4 - rasm. *Prosthogonimus ovatus* trematodasining rivojlanish siklining

sxemasi (M.Yu.Paskalskaya bo'yicha, 1954 yil) bizning o'zgartirishlarimiz bilan.

Jizzax va

etilgan.

xo'jayinlar

U hamma joyda, erkin yuradigan qushlarda uchraydi. Bizning tadqiqotlarimizga ko'ra, invaziyaning ekstensivligi 3,9-15,5% ni tashkil etdi. Invaziyaning intensivligi bittadan o'nlab namunagacha.


Biologik xususiyatlari. Ular orasida oraliq xo'jayin ishtirokida rivojlanadigan turlar (geteroksen shakllar), hayotiy sikli oraliq xo'jayinlar ishtirokisiz davom etadigan turlar (gomoksen shakllar) mavjud. Rivojlanish bilvosita davom etadigan barcha holatlarda, yomg'ir chuvalchaglari kapillyaridlarda oraliq xo'jayinlar rolini o'ynaydi. Qushlarning zararlanishi invaziv kapillyar lichinkali yomg'ir chuvalchaglarini iste'mol qilganda sodir bo'ladi. Qushlar zararlangandan keyin organizmda parazitlar 21-23 kun ichida jinsiy voyaga yetadi.

Askaridioz - Askarida avlodiga mansub: *A.galli* va *A.compar* nematodalari qo'zg'atadi, tovuqlar, kurkalar va sesarkalarning ingichka ichaklarida joylashadi. Ikkinchi tur biz tomonimizdan Jizzax viloyati G'allaorol tumanidagi sesarkalarda ro'yxatga olingan.

Askaridiyalar to'g'ridan-to'g'ri rivojlanadi. Tashqi muhitda tuxumlarda invaziv lichinkalar rivojlanadi. Qushlar bu nematodalarning invaziv tuxumlarini oziq-ovqat yoki suv bilan istemol qilish orqali askarida bilan kasallanadi (6-7-rasm).

Askaridioz - tovuqsimon qushlarning keng tarqalgan va juda jiddiy kasalligi. Yilning barcha fasllarida uchraydi, yosh hayvonlar ayniqsa jabrlanadi, ular orasida ko'p sonli jo'jalarning o'limi kuzatiladi. O'rganilayotgan hududlarning alohida xo'jaliklarida invaziyaning ekstensivligi tovuqlarda 45-85% gacha, kurkalarda 18% va sesarkalarda 15% ga yetadi. Invaziyaning intensivligi 2 dan 35 namunagacha.


Getarakidoz - bu *Heterakis* avlodiga mansub nematodalar keltirib chiqaradigan gelmintoz kasallik. Bizning materialimizda bu avlodning ikkita turi qayd etilgan: tovuqlar, kurkalar va sesarkalarning ko'richaklarida joylashgan *H.gallinarum* va *H. macroura*.



5-rasm *Capillaria obsignata* nematodasining umumiy ko'rinishi. Erkak (V.G. Gagarin bo'yicha, 1951).



6- rasm *Gallus gallus domesticus*ning yetuk *Ascaridia galli* bilan zararlangan ichagi.



7- rasm *Ascaridia galli* nematodasining rivojlanish sikli sxemasi.


Rivojlanish to'g'ridan to'g'ri davom etadi. Invazion lichinkalar tashqi muhitda tuxumda rivojlanadi. Definitiv xo'jayinlar invaziv lichinkali tuxumni o'z ichiga olgan oziq-ovqatlarni yutish orqali yuqtiradi. (Petrochenko va Kotelnikov, 1976; Sonin va Barush, 1996; Anderson, 2000; Azimov va boshqalar, 2012).

Geterakidoz tovuqlar, kurkalar va sesarkalarda eng ko'p uchraydigan gelmintozlardan biridir. Toshkent, Jizzax va Sirdaryo viloyatlarining o'rganilayotgan xo'jaliklarida qushlarning geterakidoz bilan kasallanishi 48-90 % ga yetadi. Yosh tovuqlar, kurkalar va sesarkalarning zararlanishi, gelmint tuxumlari bilan ifloslangan parrandaxonalarda sodir bo'ladi.

Akuarioz - Spirurida turkumidagi Acuaridae oilasiga mansub *Acuaria hamulosa* va *Acuaria gruvelli* nematodalar keltirib chiqaradigan kasallik. Nematodalar tovuqlar, kurkalar va sesarkalarning muskulli oshqozonida parazitlik qiladi. Toshkent, Jizzax, Sirdaryo viloyatlari parrandachilik xo'jaliklarida akuarioz keng tarqalgan.

